

NOMA JANRI ASOSIDA YARATILGAN ASARLAR TAHLILI

Dilobar Davlatova Ergashevna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo‘nalishi 1-kurs magistranti

E-mail : dilobardavlatova130@gmail.com

Tel: (90)907-12-08

Annotatsiya: Ushbu maqolada noma janri va uning kelib chiqishi, davrlar silsilasida rivoj topishi va sayqallanishiga oid fikrlar keltirib o‘tiladi. Shuningdek noma janriga oid asarlar tahlili bilan tanishib chiqamiz. Xossatan, Sayyid Ahmadning “Taashshuqnoma”, Xo‘jandiyning “Latofatnoma”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”, Amiriyning “Dahnoma” asarlarida noma janrining qo‘llanilishi haqida bir qancha mulohazalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Noma janri, Mumtoz asarlar, xat, maktub, doston, masnaviy, murabba

Abstract: This article discusses the noma genre and its origin, development and refinement over a series of periods. We will also get acquainted with the analysis of works of the noma genre. There are several comments about the use of the noma genre in the works of Khossatan, Sayyid Ahmad "Taashshuqnoma", Khojandi's "Latofatnama", Khorezmi's "Muhabbatnama", and Amiri's "Dahnoma".

Key words: Noma genre, Classic works, letter, letter, epic, masnavi, murabba

Аннотация: В данной статье рассматривается жанр нома, его зарождение, развитие и совершенствование на протяжении ряда периодов. Также мы познакомимся с анализом произведений жанра нома. Имеется несколько замечаний по поводу использования жанра нома в произведениях Хоссатана, Сайида Ахмада «Таашшукнама», «Латофатнама» Ходжанди, «Муhabбатнама» Хорезми и «Дахнама» Амири.

Ключевые слова: Жанр Нома, Классические произведения, письмо, письмо, эпос, маснави, мурабба.

Kirish: O‘zbek mumtoz adabiyotida juda ko‘plab janrlar qatori noma janri ham o‘z o‘rniga ega janrlardan hisoblanadi. Aksariyat yozuvchi va shoirlar tomonidan noma janri keng miqyosda foydalanilganliklarini, ularning asarlarini ko‘zdan kechirgan holda, muayyan xulosaga kelishimiz mumkin. Ajablanarlisi shundaki, ayrim noma janriga oid asarlar bir-biridan andaza olgan holda bil‘aks, bir-biridan umuman xabarsiz holda aynan o‘xshash asarlar ham yaratishgan. Shu o‘rinda noma janri haqida muxtasar to‘xtalib o‘tsak, “noma” so‘zi “xat”, “maktub” ma‘nolarini bildirib, juda qadimiy janrlardan biri hisoblanadi. “Noma” atamasiga “Navoiy asarlari lug‘ati” da quyidagicha ta‘rif berilgan: “Noma” - xat, maktub; risola; Nomai iqbol - mehribonchilik xati; xursandchilik xati; Noma sabt etmak - xat yozmoq; Nomai ahmol amallar (tiriklikda qilingan yaxshi, yomon – gunoh, savob ishlar) yozuvi.” Yana boshqa manbaalarda esa «noma» avvaldan namak, nomak shakllarida, keyinchalik esa hozir qo‘llanadigan shaklda, ya‘ni noma tarzida ishlatilganligini ko‘rishimiz mumkin. Noma so‘zining lug‘aviy ma‘nosi keng bo‘lib, u xat, maktub, farmon, yozilgan narsa, yorliq, kitob va asar ma‘nolarini ifodalaydi.

Maqolada yetakchi o‘ringa qo‘yilgan masalalardan biri noma janriga oid asarlar tahlili hisoblanadi. Avvalo, tahlil nima? Degan savolga batafsil tushuntirishlar kiritib olishimiz kerak bo‘ladi. Adabiy tahlil - bu o‘zaro qadriyat va munosabatlarni idrok etish va asarni to‘liq va mazmunli yaxlitlik sifatida yaxshiroq tushunish, talqin qilish va his qilish uchun matnni tarkibiy qismlarga ajratishdir. Adabiy tahlil - bu adabiy asarni tekshirish va baholash. Odamlar adabiyotni tahlil qilganda, muallifning ma‘no yaratish uchun adabiy uslublardan, janrlardan qanday foydalanganini ko‘rib chiqadilar. Shu o‘rinda maqoladan ko‘zlangan asosiy maqsad noma janrining kelib chiqishi, tasnifi va shu janrda taraqqiy topgan madaniy meroslarimizni o‘zaro taqollashtirishdan iborat. Avvalambor nomaning ilk ildizlariga nazar tashlashimiz joizdir. Qadim manbalarga ko‘ra O‘rta Osiyo tarixida yozuv paydo bo‘lmasdan oldin buyumlar orqali

o‘zaro xabar almashinilgan. Misol sifatida esa, skiflar shohi Idanfrisning Eron shohi Doroga yuborgan buyumlar – kamon o‘qi, baqa, sichqon va qushdan iborat o‘ziga xos “maktub”ni keltirishgan. Bunday maktublar eng qadimiy nomalardan hisoblanadi. Bundan tashqari nomaning ildizlari xalq og‘zaki ijodida ham namoyon ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, “Alpomish” dostonida nomaning ilk namunasini uchratishimiz mumkin. Qalmoqlar yurtida qolgan Barchin o‘zining nochor ahvolini bayon etib, Hakimbekdan yordam so‘rab, unga maktub yozadi va maktubni o‘nta navkar orqali yuboradi. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida ham bir necha o‘rinlarda nomadan foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin. Misol tariqasida, Mahmud Koshg‘ariy qo‘shug‘ so‘ziga izoh berganda ham, lirik qahramon Turkon xotunga noma yo‘llab, «xodimi xizmatga tayyor» ekanini bildiradi. Yusux xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida Kuntug‘di elig tog‘dagi g‘orda zohidona hayot kechirayotgan O‘zg‘urmishga maktub yuborib, u bilan uchrashib, suhbatlashishni ixtiyor qilganini yozadi. Kuntug‘dining bu xati ham noma janrining ilk namunalariidan biri sifatida talqin qilinadi. Noma eski o‘zbek tilida bildirgulik so‘zi bilan ham ifodalangan. “O‘g‘uznoma” dostonida O‘g‘uz xoqon barcha ellarning hukmdorlariga bildirgulik, ya‘ni noma yuborib, bo‘ysunish va o‘lpon to‘lashni talab etadi. Shu tariqa ma‘lum ehtiyojlar tufayli paydo bo‘lgan xabarni ifodalash shakllari ham nomaning shakllanishiga asos bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Ikkinchi tomondan, fors-tojik adabiyotidagi noma janri ham o‘zbek adabiyotidagi ilk nomaning shakllanishiga ta‘sir etgani shubhasizdir. Adabiy tizim sifatida noma maktub tarzida yozilgan badiiy asardir. O‘zbek va fors-tojik adabiyotida noma asosan she‘riy shaklda yaratilgan. O‘zbek mumtoz adabiyotida bu janrning ilk namunasi shoir Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asaridir. «Muhabbatnoma» liroepik asar bo‘lib, turli she‘riy janrlarni - noma, masnaviy, g‘azal, qit‘a va madhiyani o‘z ichiga olgan. Biroq undagi yetakchi janr - nomadir. XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan shoir Maxmur o‘zining «Ta‘rifi viloyati Qurama va az davoni Kandir guzashtan» nomli muxammasini yaratadi. Bu muxammas sayohatnoma janri xususiyatiga ega. Chunki unda avtor o‘zining Qirovchini, Dashti Qipchoqni bosib o‘tgani, Kandir davonidan oshib, Quramaga safar qilganini hamda ana shu sayohatdan olgan taassurotlarini yozadi. Maxmur Qurama safari taassurotlarini yozganda, mazkur manzilning ob-havosi, yo‘llari, aholisining ahvoli, hokimlari va shu kabilarni juda mahorat bilan tasvirlaydi. Mazkur asar sayohatnoma janrining shakllanishida bir bosqich bo‘ldi desak xato bo‘lmaydi. Shu asosda XIX asrning ikkinchi yarmida sayohatnomaning mukammal namunalari vujudga keldi. Jumladan, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Tajalliy kabi shoirlar tomonidan yozilgan sayohat taassurotlari fikrimiz dalilidir. Bu nomalarning shakliy-poetik jihatlari ham «Muhabbatnoma» yoki Navoiy dostonlaridagi nomalardan farq qiladi. Jumladan, Muqimiyning «Sayohatnoma»si murabba‘ shaklida yozilgan bo‘lib, a-a-a-b, d-d-d-b va h. tarzida qofiyalangan, aruzning rajazi murabbayi solim (mustaf’ilun, mustaf’ilun) bahrida yozilgan. «Sayohatnoma»da shoirning biror shahar yoki qishloq (Isfara, Rafqon, Yayfon, Farg‘ona, Oltiariq, Yakkatut, Zohidon, Qudash va boshqalar) dan olingan taassurotlari bayon qilinadi, o‘sha joydagi zolim va fosiq amaldorlarning (hoji Iso mingboshi, G‘ozi bo‘lis, Eshdavlat mingboshi va hokazo), halol mehnat bilan kun kechiruvchi oddiy xalq vakillari (Mirza Umar, Burhon)ning nomlari eslatiladi.

Sharq, xususan, o‘zbek mumtoz adabiyotida turli munosabatlar bilan yozilgan noma (maktub, xat)lar mavjud. Ular mavzu-tematikasiga ko‘ra bir-biridan o‘zaro farqlanadi. Masalan, adabiyot tarixida “noma” deb ataluvchi tarix, memuar, sayohat yoki janglar ta‘rifi haqidagi asarlar yaratilgan (“Zafarnoma”, “Boburnoma”, “Shayboniynoma” singari). Lekin ularda “noma” atamasi o‘zgacharoq vazifani bajaradi. Masalan, “Zafarnoma” – zafarli jangovar harakatlar haqidagi asar, “Shohnoma” – shohlar tarixi haqidagi badiiy asar, “Sayohatnoma” - turli sayohatlar va sarguzashtlar tafsiloti haqidagi asar, “pandnoma” – nasihat va o‘gitlar to‘plami va hokazo. Aslida, “noma” oshiqning ma‘shuqaga yo‘llangan maktublari tarzida yozilganligi tufayli ana shunday nom bilan atalgan”. Shu bilan birga noma mumtoz adabiyotda sezilarli mavqega ega bo‘lmish liro-epik janr hamdir. Tadqiqotimiz manbai bo‘lgan “Muhabbatnoma”, “Latofatnoma”, “Dahnoma”, “Taashshuqnoma” singari asarlar ana shu janr namunalaridir

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, noma keng ma‘nodagi adabiy termin bo‘lib, uning to‘g‘risida umumiy fikr yuritish mumkin emas. Shuning uchun ham noma so‘zi bilan kelgan har bir



asarni chuqur tekshirgandan, uning xususiyatlarini o'rgangandan keyingina uni ma'lum nomalar guruhidan biriga mansubligini aniqlash va kiritish mumkin.

Foydalanilgan adabiyatlar:

1. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: Sano-standart, 2017. B.94.
2. Muhitdinovna Sh.R. Noma janriga mansub dostonlarning vazn xususiyatlari. Doktoranti, PhD International scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan".- 2022, No 4 (45) – P.158-177.
3. Muradova ???
4. Kholikova N. Poetic features of uzbek poetry of the national awakening period. Theoretical & Applied Science, (4).- 2020. – P.615-623.
5. Azimova O'. Noma janrining o'zbek adabiyotida tutgan o'rni – Farg'ona, 2017.
6. А.Н.Самойлович. Таашшукнома. – М.1927.
7. Jamolova M. O'zbek adabiyotida noma janri. – T.: Fan, 1992.
8. Shamsiyev P. Navoiy asarlari lug'ati. – T.: G'afur G'ulom, 1972.
9. Djokhongirovna K. N. The period of national awakening in uzbek poetry echo of the treasure voice of the nation. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(6). –P. 2020. 4045-4054.